

**Do`stlik tumani axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati**

**“BIRINCHI MUALLIM” qissasiga bibliografik
sharx.**



“Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov nafaqat qirg‘iz eli, ayni paytda, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham aziz va qadrli siymo, O‘zbekistonning ulkan do‘sti edi”.

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Men Chingiz Aytmatovning asarlari bilan o'quvchilik yillarimda, maktab darsligiga kiritilgan "Birinci muallim" qissasidan keltirilgan parchani o'qib, tanishganman. Yillar o'tib asarning to'liq matnini mutolaa qilganimda ham o'sha bolalikdagi ilk taassurotlarim o'zgarmay qolgan. So'z bilan ifodalab bo'lmaydigan jumlar hamon yodimda. Asarni o'qir ekanman, ilk bor qo'limizga ruchka ushlashni va yozishni o'rgatgan birinchi ustozim xayolimdan o'tadi. Chingiz Aytmatov ushbu asar orqali birinchi ustozga barcha shogirdlar nomidan haykal qo'yib ketgan.

Chingiz Aytmatov o'zining ilk asarlaridayoq ijtimoiy hayotning muammolarini ochib bergan yozuvchi sifatida tanildi. U oddiy xalqning kundalik hayotini yorqin bo'yoqlarda aks ettirdi. Shu sababli ijod namunalari qo'lma-qo'l bo'lib, ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilindi, badiiy filmlar yaratildi.

Adibning "Birinci muallim" qissasi qahramonlari ham oddiy, mehnatkash, vatanparvar insonlar sanaladi. Unda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgan, uni mardonavor yenggan, matonatli, muallim Duyshen orqali fidokor insonlar hayoti ochib berilgan. Qissa tabiat tasviri bilan boshlanadi. Yosh rassomning bolaligi o'tgan zamin, yonma-yon qilib qurilgan ikki terak, "Duyshen maktabi" deb nom olgan tepalik haqidagi xotiralari asar voqealariga bog'lanadi. Qissada obrazlar qiyofasi xarakter-xususiyati asar sujeti davomida ochib beriladi. "Baland bo'yli, sersavlat, burgut qovoqli", "sersoqol, beozor" xat tashuvchi qachonlardir navqiron, shijoatli bo'lganini, yetarlicha xat-savodi bo'lmay turib bolalarni o'qitgan muallim Duyshen obrazini asarni o'qiyverganingiz sari kashf qilaverasiz. Asar voqealari Duyshenning sobiq o'quvchisi akademik Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qilinadi. Duyshen maktab ochishda hech kim yordam bermaydi. Uyma-uy yurib o'quvchi yig'adi, ularni har kuni maktabga o'zi olib kelib, dars tugagach etib qo'yadi. Hamma uning ustidan kuladi. Shunda ham mashaqqatli ishidan voz kechmay, o'quvchilarga mehr qo'yadi. Bilganlarini o'rgatadi. U tug'ilib o'sgan yurtining, xalqining farzandlarini savodli qilmoqchi edi. Chunki ilm, ma'rifat bilan vatanining kelajagi buyuk bo'lishiga ishonardi. 14 yoshli Oltinoy o'zining bilimga chanqoqligi, intiluvchanligi bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turadi. Undagi iqtidorni sezgan muallim Moskvaga o'qishga yuboradi, ilmga bo'lgan ishtiyoqi, tirishqoqligi, mehnatsevarligi tufayli akademik darajasiga yetadi. NATIJALARYozuvchi Duyshen obrazi orqali haqiqiy jonkuyar muallim, ijobiy xislatlar egasi, yurti sevuvchi, kasbiga sadoqatli inson qiyofasini chizib bera oldi. Hayot bir tekis emas, yaxshilik bor yerda yomonlik ham soyadek ergashadi. Ota-onasidan erta yetim qolgan yangasining kaltaklaridan, zug'umlaridan bezigan Oltinoyning hayotida maktab uning zulmatli kunlarini yorituvchi mash'al edi. Lekin yangasi bunga ham chek qo'yib, "yuzlari qizarib, bo'rtib ketgan, go'yo to'nkani eslatuvchi beso'naqay odam"ga muallimning qarshiligiga qaramay uzatib yuboradi. Yozuvchi bu odamga nom qo'ymaydi, shunchaki "qizil yuzli" deb ataydi. O'quvchi asarni o'qigach bu odamga nafrati oshadi. Ayniqsa, uni qamoqqa olib ketishayotganda "qora xotin"ning "Qonimni zulukdek so'rib, umrimni xazon qilding, odamxo'r! Xudo ursin seni, yo'qol, odam qiyofasidagi maxluq!" deya qirq yildan buyon qalbida yig'ilib qolgan bardosh-u dard-alamlar ila faryodidan "qizil yuzli"ning qanchalik xudbin, tuban insonligi bilinadi.

Asarda yemchi kampirga ishonadigan, mehr-oqibatli, xokisor, ajoyib kishilar sifatida tasvirlangan Qartanboy aka va Sayqal momolar asar qahramonlariga yordam beruvchi sodda, bag'ri keng insonlardir. Chingiz Aytmatov bu kichik qissada Oltinoyning ham tashqi, ham ichki go'zalligini mahorat bilan tasvirlab bergan. Razil kimsalar qo'liga tushib qolgan Oltinoy shunday xitob qiladi: "To'qol nima degan odam bo'ldi! Bir umr yorug' dunyoni ko'rmagan sho'rlik to'qol... Qo'zg'oling, tubanlikka mahkum etilgan baxti qarolar, haqoratlanganlar, halokatga duchor etilganlar timsoli, insoniylik qadr-qimmatidan mahrum etilgan ayollar, qo'zg'oling! Qo'zg'oling jafokashlar, o'sha davrning zulmatlari qo'rquvdan titrab qaltirasin! Bu so'zlarni men aytyapman, oralaringda bu qismatni s o'nggi bir hatlab o'tgan ayol aytyapti!" Shu parchaning o'ziyoq Oltinoyning ma'naviy jihatdan nihoyatda g o'zalligini dalillaydi. Birinchi muallimning dono maslahatlari Oltinoyni doim olg'a qadam tashlashga, ilm ch o'qqilarini zabt etishga, mashaqqatlarni mardonavor yengishga, o'z o'rnini topishga, haqiqiy inson bo'lib yetishishiga chorlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Yozuvchi xalq bilan qattiq bog'liqligini chuqur his qilsa, bu unga go'zallik va quvonch bag'ishlaydi" degan edi Maksim Gorkiy. Chingiz Aytmatov asarlardagi obrazlar xalqdan olingan edi, yillar o'tsa-da asar g'oyasi eskirmaydi, o'qiganing sari o'qiging kelaveradi. Chingiz Aytmatov "Birinchi muallim" qissasida Oltin, Duyshen kabi qahramonlarning ichki dunyosini, xarakterlarini, ularning yangilik uchun kurashlarini haqqoniylik va yorqinlik bilan tasvir eta oldi. Qissani takror-takror o'qigan sari uning yangi qirralari ochilaveradi. Asar yoshlarimizni kamol toptirishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asil Rashidov. So'nmas yulduzlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1981, 206-bet.
2. Chingiz Aytmatov. Oq kema. Birinchi muallim. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T., 2017, 150-bet.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., O'zbekiston, 2002. -559 b.
4. R. Orzibekov O'zbek lirik shariyati janrlari. Fan. T., 2006, 118-bet.
5. To'raev D. Yangi o'zbek adabiyoti. –Toshkent. Fan, 2008. –191 b

Foydalanilgan manba

<https://jizzaxnews.uz/uz/jamiyat/madaniyat/birinchi-muallim-qissasining-yozilish-tarixi>